O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING BUXORO
VILOYATI BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-06, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Xayitov Bekzod Razzokovich
Sana: 26-06-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

247533 - SONLI

Obyekt nomi: «Buxoro shahar A. Donish MFY Q. Murtazoyev ko’chasidan “MEGA QURILISH BARAKA SERVIS” MCHJga tegishli noturar “Bino inshootlar”ni buzib, ko’p xonadonli turar joy binolari qurilishi. 1 ta 7 qavatli, 112 xonadonli to’rt pod’yezli turar joy binosi qurilishi. (Bosh reja bo’yicha № 2)»	
Buyurtmachi:	MEGA QURILISH BARAKA SERVIS MCHJ
Bosh loyihachi:	"ARCHIPROFI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Buyurtmachi tanlovi asosida
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	072530

1. Loyihalash uchun asos.

1.1 Buxoro viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi boshqarmasi Yagona Interaktiv Davlat xizmatlari portali orqali 2021 yil 20-noyabrda berilgan 1706-1706401-97731-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig’i.

1.2 O’zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirligi tomonidan Ob’yekt ixtisosini o’zgartirish va rekonstruktsiya qilishga 19.10.2023 17:50 dagi 1706401-137444-sonli RUXSATNOMA.

Ko‘chmas mulk obyektiga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida Davlat Reyestridan

1.3 2023 yil 13-oktyabrdagi YK-1706401/2544699 raqamli o’tgan KO'CHIRMA.

1.4 O’zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan tomonidan 12.01.2021 yilda AL-001588 sonli muhandislik — texnik qidiruvlarni bajarish «MAXSUS YaGONA LOYIHA» MChJ ga litsenziya berilgan.

1.5 O’zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati "Hududgazta’minot" AJ ning - 2024yil 11-noyabrdagi 098616 sonli rad etilgan texnik sharti;

1.6 O’zsuvta’minot AJ «Buxoro suv ta’minoti» ma’suliyati cheklangan jamiyatining - 2024 yil 05 noyabrdagi 457-sonli texnik sharti.

1.7 O’zbekiston Respublikasi «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ “Buxoro hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” aksiyadorlik jamiyatining - 2024yil 05-noyabrdagi 32-12/1191 sonli texnik sharti.

1.8 Davlat ekologik ekspertizasining 18.12.2023 dagi ijobiy xulosasi.

1.9 Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyiha topshirig’i.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1 Albom. Bosh reja.

2.2 Albom. Arxitektura qurilish bo’limlari.

2.3 Albom. Ichki elektr ta’minoti, Ichki suv va oqova suv ta’minoti, ichki issiqlik tizimi, yong’indan ogohlantirish va aloqa tizimi bilan Noananaviy energiyadan foydalanish quyosh panellari va maxsus spetsifikatsiyalar.

2.3a Nogironligi bo’lgan shaxslar uchun albom.

2.4 Muhandislik-geologik xulosa.

2.5 Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino						
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**	**Xonadonlar soni**
Ko'p xonadonli turar joy binosi	“KO’P XONADONLI TURAR JOY BINOLARI” QURISHNI LOYIHALASHTIRISH	7	1059.30	3040.76	32084.12	112
Jami:			**1059.3**	**3040.76**	**32084.12**	**112**

3.1 Qurilish maydonining xususiyatlari. Loyihalangan bino va inshootlarning asosini MGX №3 qumli tuproq oquvchanlikdan kulranggacha, suvgv to’yingan, o’rta zichlikdagi supes qatlam va pastki shag’al aralashgan tarkibdan iborat. Fizik — mexanik xossalari ɣ1=19.3 kN/m3, S=1.0KPa, φ=30°. Elementlarning quvvati 1.0-5.50m gacha. Tuproqlarning uglerodli po’latga nisbatan korroziyali agressivligi o’rtacha. Yer osti suvlarinig maksimal ko’tarilish balandligi 2.50(219.65m) m mavjud yer sathidan. MGX №1 Qatlam qo’shimcha yuklarda cho’kuvchan, cho’kuvchanlik turi I tur. Cho’kuvchan qatlamning quvvati 1.90m. Mavsumiy muzlashning maksimal chuqurligi 0,57 m. Qurilish maydonining zilzilabardoshliligi 7 ball. Tuproqlarning zilzilabardoshlilik toifasi uchinchi hisoblanadi. Qurilish maydonining taxminiy zilzilabardoshliligi 8 ballni tashkil etadi.

3.2 Texnologik yechimlar. ShNK 2.08.01-24 "Turarjoy binolari" va ShNK 2.08.02-23 «Jamoat binolari va inshootlari», talablarini loyihalash bo’yicha tasdiqlangan topshirig’iga muvofiq texnologik yechimlar qabul qilindi va Buyurtmachi bilan kelishilgan. Buxoro Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi boshqarmasi huzuridagi Arxitektura shaharsozlik kengashining 2025 yil 17-apreldagi 186630476-sonli yig’ilish bayonnomasi.

3.3 Hudud. “MEGA QURILISH BARAKA SERVIS” MCHJga 0.76 ga yer maydonda “Bino inshootlar”ni buzib, “Ko’p xonadonli turar joy binolari” qurishni loyihalashtirish binosi qurilishi loyihalashtirilayotgan yer uchastkasi Buxoro shahar A.Donish MFY Q.Murtazoyev ko’chasida joylashtirilgan.

3.4 Bosh reja. Ob’yektning umumiy bosh rejasi amaldagi me’yorlarga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan. Loyihada qiyalik yaratish va mavjud relef hududdan yomg’ir suvini oqishi va yashil maydonlarni sug’orish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilindi. Loyihalashtirish uchun ruxsat berilgan umumiy 7600.0 kv.metr yer maydoni quyidagicha chegaralangan: Shimol tomondan — ichki yo’l orqali Buxoro Davlat pedagokika universiteti

hududi bilan chegaralangan; Janub tomondan — bo’sh yer maydoni bilan chegaralangan; Sharq tomondan —mavjud binolar hamda bo’sh yer maydoni bilan chegaralangan; G‘arb tomondan —masofa orqali mavjud bino bilan chegaralangan;Loyihada quydagilar rejalashtirilgan ikki podyezli 7 qavatli turar-joy binosi, bolalar maydonchasi, yo’l va yo’laklar rejalashtirilgan, Shuningdek Qurilish bosh boshqarmasi huzuridagi arxitektura-shaharsozlik kengashi tomonidan 2025 yil 17-apreldagi 186630476-sonli yig’ilish bayonnomasi.

Texnik iqtisodiy ko’rsatgichlar. (bosh reja bo’yicha).

Qurilish maydoni – 3120.09m^2

Yo’llar va avtoturargohlar – 2859.11m^2

Obodonlashtirish maydoni – 1602.62m^2

Bolalar maydonchasi – 445.95m^2

Boshqalar – 18.18 m2

Loyihada quyidagilar ta’minlanadi: Arxitektura va qurilish yechimlari. Loyihalashtirilgan hududda bino 4-ta pod’ezdan iborat o’lchami 66,40x16.20 konstruktiv yechimi ramali 7 qavatli yer to’la balandligi 2,90m yuqori qavatlarda turar joy, 1-7 qavat balandligi 3.10m.

Yerto’la qismida nasos uchun xona, zina, yerto’la maydonlar joylashtirilgan.

Birinchi qavatdan yettinchi qavatgacha – zina, lift shaxtasi, koridor, 2 xonali (70 dona), 1 xonali (42 dona), xonadonlardan iborat.

Jami 112 ta xonadondan iborat.

Bino bo’yicha Texnik iqtisodiy ko’rsatgichlari:

Turar joy binosining umumiy maydoni – 8232,12m^2

Kvartiralarning umumiy maydoni – 5743,94m^2.

Kvartiralarning umumiy yashash maydoni – 3040,76 m^2.

Qurilish hajmi – 32084,12 m^3

Qurilish hajmi yer ustidan – 28906,23 m3

Qurilish hajmi yer osti – 3177,90 m3

Qurilish maydoni – 1059,30 m^2

Konstruktiv sxema.

Fasadning me’moriy yechimlari.

Poydevorning yer ustki qismi (Sokol) – penopolistirol izolyatsiya, keramik plitkali qoplama bilan qoplangan.

Devorlar – fasad to’rlarida bazalt asosidagi izolyatsiyalash bilan yaxshilangan gips bilan devorlarni suvoqlash va «Travertin» (attachento seriy) dekorativ devor bezagi bilan qoplash.

Konstruktiv yechimlar: seysmik yuklarni qabul qiluvchi devorlari ishtirok etmaydigan monolit temir-beton karkasda diagfragma bilan ishlab chiqilgan. Bino ramali gazablok va M75 gishtdan to’ldiruvchi devordan iborat yechim, uning fazoviy rama va diagfragma va qoplamaning temir-beton diskining ishi bilan ta’minlanadi KMK 2.01.03-2019, 3.1- jadval, 1.2.2-b) asos.

Poydevorlar – B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolit temir-beton poydevor plita.

Yer to’la devorlari -B25 sinfidagi betondan yasalgan monolit temir-beton devorlar.

Diagfragmalar – B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolit temir-beton.

Lift shaxtalari– B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolit temir-beton.

Kolonna va rigellar – B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolit temir-beton.

Tashqi devorlari – 250mm qalinlikda M75 sinfli g’ishtdan va M50 qorishmaga teriladi.

Ichki devorlari - D600Kg/m3 sinfli avtoklav gazoblokdan.

Kvartiralarni bo’luvchi pardevorlar – 100mm qalinlikda gazablok D600Kg/m3 bloklar va metal karkas bilan kuchaytirish ko’zda tutilgan.

Tomyopma va orayopma – zavod sharoitida tayyorlangan temir-beton plitalardan.

Zinapoyalar – B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolit temir-betonlardan.
Tom qoplamasi – chordoqli tom, yog'och konstruksiyaga profnastil qoplangan.
Buyurtmachining 2025-yil 27 maydagi 19-sonli xatiga asosan 7 qavatli turar-joy binosini qurilishi ob'yekti loyihasi «Ipoteka kreditidan foydalanishda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident (PQ-377-son, 22.09.2022yil.) qarorning 3-so'z boshiga keltirilgan talab asosida, xususiy pudrat tashkiloti tomonidan qurilgan uylardagi kvartiralarni (xonalarga bo'lingan va pardozlash ishlariga tayyor) holga keltirib qurib bitkazish inobatga olinib loyihalashtirilgan.
Eshik romlari — metal va MDF eshik romlaridan ichki MDF eshik romlar smetada hisobga olinmagan.
Pol qoplamasi, beton asosli laminat va keramik plitkalar pollar tarkibi faqatgina beton asosdan tashqari qatlam loyihada to'liq ko'rsatilgan.
Deraza va vitraj romlari – ikki qavat oynalar bilan qoplangan AKFA PLAST profillardan, deraza tokchalari PVX dan.
Ichki pardozlash – devorlarni gruntovka qilish, yaxshilangan suvoq bilan suvoqlash va suvli emultsiya bilan bo'yash, namli xonalarda N-1.5m balandlikda keramik plitkalar terish ishlari, shift choklarini to'ldirish va suvli bo'yoq bilan bo'yash suvoq qatlamdan tashqari bezak berish ishlari smetada hisobga olinmagan.
Binoda har bir pod'yezda yuk ko'taruvchanligi 630 kg iborat kabina tezligi 1m/s yulovchi lift o'rnatilishi kuzda tutildi
Harakati cheklangan odamlar uchun qulay foydalanishni ta'minlaydigan yechimlar.
Loyihada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 18 iyuldagi «Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqlarsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ266-son qaroriga muvofiq zinalarda panduslar o'rnatish, yo'laklar ko'zi ojiz shaxslar harakatlanishi uchun taktil qoplama bilan jihozlanishi, shuningdek hojatxonalarda alohida kabina va avtoturargohda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun joy ko'zda tutilgan.
Korroziyadan himoya qilish. Binoning poydevori ostida gruntni bostirish qirrali shag'al tashlash 1500 mm va pastki qismi beton B12.5 amalga oshiriladi qalinligi 70mm, yuqori qismi beton B10 amalga oshiriladi qalinligi 30mm va orasida 3 mm bo'lgan 2 qavat TPP yotqizish ko'zda tutilgan. Turar-joy binosi poydevorining yon sirtlari qalinligi 3 mm bo'lgan 2 qavat TPP poliizol qatlami bilan yopishtirilgan. Yer osti inshootlari uchun GOST 10178-85* bo'yicha Portland sementida normal o'tkazuvchanlik betoni qabul qilingan.
3.6. Energiya samaradorlik.
Energiya samaradorlikni ta'minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:
devori– zichligi γ=125 kg/m3 , qalinligi 80 mm bo'lgan bazalt plitalardan devor termoizolyatsiyasi bajarilgan (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi);
– tomyopma termoizolyatsiyasi zichligi γ=140 kg/m3, qalinligi 150 mm bo'lgan penopolistiriol plitalardan qoplama termoizolyatsiyasi bajarilgan (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi);
– tomda quyosh panellari, quyosh kollektorlari o'rnatilgan;
– FIK yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan va boshqalar;
– yoritish svetodiodli sensorli datchikli chiroqlar orqali bajarilgan va boshqalar.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Buyurtmachining topshirig'iga asosan 7 qavatli turar-joy binosini qurilishi ob'yekti loyihasi «Ipoteka kreditidan foydalanishda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident (PQ-377-son, 22.09.2022y.) qarorning 3- so'z boshiga keltirilgan talab asosida, xususiy pudrat tashkiloti tomonidan qurilgan uylardagi kvartiralarni (xonalarga bo'lingan va pardozlash ishlariga tayyor) holga keltirib qurib bitkazish inobatga olinib loyihalashtirilgan, shuningdek muhandislik tarmog'i ya'ni tashqi suv va oqava suv tarmog'i,

ichki va tashqi gaz taminoti, issiqlik ta’minoti keyingi bosqichda amalga oshirilishi loyihalash ishlari ikkinchi bosqichda ko’zda tutilgan.

Ichki suv ta’minoti va oqava suv tarmoqlari. Sovuq suv ta’minoti tizimining quvurlari polipropilen quvurlardan ta’minlanadi shunigdek xonadonlarda zamonaviy aqlli elektron hisoblagichlar o’rnatish ko’zda tutilgan. Loyihada hisoblagichlarni, Nasoslar o’rnatish shuningdek nasos xonasida drenaj o’rnatish ko’zda tutilgan, barcha loyihada yong’in o’chirish tizimi uchun metal quvurlar, shlang nasoslar ko’zda tutilgan. GOST 18599-01 ga oqava suvlar uchun politelen quvurlar o’rnatish ko’zda tutilgan.

Issiq suv taminoti tomda quyosh suv isitish bollerlari hamda elektr isitish qozonlaridan (elektoronagrevatel) foydalanish ko’zda tutilgan.

Ichki elektr yoritish. Binolarni elektr yoritish KMK 2.01.05-98 va KMK 2.04.17-98 ga muvofiq ishlab chiqilgan. Kirish moslamasi sifatida shkaflar o’rnatish va taqsimlash shkaflari, boshqaruv shkaflari, Avtomatik kalitlarga ega zamonaviy aqlli elektron hisoblagichlar, yoritgichlar, o’chirib yoqgich, har bir xonadonda yorug’lik chiroqlar, rozetkalar, oshxona jihozlari va qozon uchun elektr ta’minoti, energiyani tejaydigan lampalar bilan yoritish moslamalari taqdim etiladi. Loyihada elektr qo’ng’iroqlarni o’rnatish, fasad qismida dekorativ yoritgichlar o’rnatish, elektr tokini yerga ulash ko’zda tutilgan, shuningdek tomda quyosh elektr energiyasi ishlab chiqadigan panellar o’rnatish, aloqa tizimi va yong’indan ogohlantirish tizimlarini o’rnatish ko’zda tutilgan.

Ichki gaz ta’minoti. Ovqat pishirish uchun elektr plitalari ko’zda tutilgan.

Isitish. Isitish tizimi – umumiy isitish tarmoqlari orqali. Isitish moslamalari sifatida bimetalik radiatorlar o’rnatish qabul qilinadi. Ichki isitish uchun polipropilen quvurlar taqdim etiladi. Loyiha kengaytirish baklarini o’rnatishni nazarda tutadi.

Smeta hujjatlari. Ko’rib chiqish uchun taqdim etilgan smeta hujjatlari "ShNK" smeta resurs normalari to’plamlari bo’yicha resurs usuli yordamida joriy narxlarda tuzilgan. Smeta hujjatlari doirasida quyidagilar taqdim etiladi: lokal resurslar qaydnomasi, zarur resurslar ro’yxati, joriy narxlarda ob’yektning tavsiya etilgan narxini hisobkitobi. Ob’yektning tavsiya etilgan narxi, qurilish ishchilarining o’rtacha oylik ish haqi, pudratchining "boshqa xarajatlari" ulushi, qurilish materiallari va uskunalari narxlari, mashinalarni va mexanizmlarini ekspluatatsiyasi, qurilish mahsulotlari uchun transport xarajatlari miqdori buyurtmachining 28.11.2024-yildagi №3/1627-06-sonli ma’lumotnomasiga asosan qabul qilindi. Tavakkalchlik koeffisienti qabul qilinmasin.

Yong’inga qarchi choralar. Loyihalashtirilgan bino va inshootlarning yong’inga chidamlilik darajasi II. Loyiha odamlarni favqulodda chiqishlar orqali xavfsiz evakuatsiya qilishni nazarda tutadi. Barcha yog’och konstruktiv elementlar antiseptiklar bilan singdirilgan va olovni to’xtatuvchi moddalar bilan ishlov berilgan, qochish yo’llaridagi devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallardan yasalgan, qochish yo’llarining eshiklari chiqish tomon ochiladigan eshiklar bilan ta’minlangan. Binolar orasidagi yong’inga qarshi tanaffuslar sanitariya me’yorlarini hisobga olgan holda ta’minlanadi, o’t o’chirish mashinalarining binolarga kirishi ta’minlanadi va o’t o’chirish uchun gidrantlar ko’rsatilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Loyiha ko’rib chiqildi va tasdiqlandi: Izohlarsiz buyurtmachi bilan.

Loyiha Buxoro viloyati hokimligi huzuridagi arxitektura va qurilish bosh boshqarmasi shaharsozlik kengashi yig’ilishi bayonnomasida ko’rib chiqildi.

Buyurtmachining loyihalash topshirig’iga asosan 5-bosqichda tashqi tarmoqlar ishlab chiqilib qurilish ishlari yakunlangandan so’ng mazkur ko’p xonadonli turar joy binosiga tashqi tarmoqlarga ulanish uchun texnik shartlar olinib, tashqi tarmoqlarning loyihasi ishlab chiqiladi va ijobiy ekspertiza xulosasi olinishi sharti bilan ijobiy xulosa berildi.

Loyihada O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.04.2024 yildagi PQ-161-sonli qarori bo’yicha qabul qilingan yechimlarning javobgarligi buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi. (Buyurtmachining 2025-yil 27-maydagi 18-sonli tasdiqlangan kafolat xati).

Davlat ekologik ekspertizasining 18.12.2023 dagi ijobiy xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **26 747 409 872** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

594 736 296 so'mga kamaytirilib, **26 152 673 576** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **22 197 320 938** so'm

Asbob-uskunalar: **1 153 280 469** so'm

QQS: **2 802 072 169** so'm

Ekspertiza jarayonida mahalliy ekspert xulosalari bo’yicha ish tartibida loyiha hujjatlariga quyidagi

asosiy tuzatishlar va qo’shimchalar kiritildi:

- Poydevorlar ostidagi shag’alning balandligi, poydevorning qabul qilingan izolyatsiyasi tuzatildi.

- Qurilish materiallarining narxi tuzatildi.

Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugagandan so’ng, nazorat o’lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

Buyurtmachi smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

Mazkur ob’yekt buyurtmachining o’z mablag’lari hisobiga qurilayotganligi sababli, smeta qismi qurilishning sifatsiz bajarilishiga yoki byudjet mablag’lariga zarar yetishiga olib kelmaydi.

Loyihachi ishchi loyiha hujjatlarni buyurtmachiga ekspertiza xulosalarida ko’rsatilgan sharhlar bo’yicha to’g’rilab tasdiqlangan holda taqdim etishi lozimligi qayd etiladi. Ishchi loyiha hujjatlari buyurtmachiga to’g’irlanmasdan topshirilganda mazkur xulosa haqiqiy hisoblanmaydi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17-tsentabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga, 2016 yil 22 yanvardagi 15-sonli qarorining 4-ilova, II-bob 8-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi”ga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo’yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo’yicha) javobgar.

Ekspert xulosasining amal qilish muddati 2 yil.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda «**Buxoro shahar A. Donish MFY Q. Murtazoy ev ko’chasidan “MEGA QURILISH BARAKA SERVIS” MCHJga tegishli noturar “Bino inshootlar”ni buzib, ko’p xonadonli turar joy binolari qurilishi. 1 ta 7 qavatli, 112 xonadonli to’rt pod’yezli turar joy binosi qurilishi. (Bosh reja bo’yicha № 2)**» ishchi loyihasi kelgusida ko’rib chiqib tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Yoshuzoqov Baxtiyor Jumageldiyevich.

Ishtirokchi ekspertlar: Turdiyev Xalik Muzafarovich, Pondina Natalya Rafikovna, Muxammedov Timur Furkatovich, Nurxonov Farrux Tilloyevich, Xamdamov Suhrob Subxon O‘g‘li, Yoshuzoqov Baxtiyor Jumageldiyevich, Djurayev Muxammadjon Akobirovich